

ZAMONAVIY TA'LIMDA TARIX DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi
Umumta'lim fani o'qituvchisi
Davidova Gulnoza Mirzakarimovna

Anotatsiya. *Zamonaviy ta'limda tarix darslari samaradorligini oshirish usullari xaqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy ta'lim, tarix fanlarini o'qitish, samaradorlik, kasbiy faoliyat, iqtidor, kreativlik, zamonaviy metodlar, zamonaviy vositalar.*

Zamonaviy ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ijtimoiy fanlarni ham qay tarzda taqsimlash, o'qitish va amaliyot integratsiyasini tashkil etishga qaratilgan maxsus konsepsiya ishlab chiqish zarur ehtiyojga aylanib bormoqda. Yangi O'zbekistonning asosiy strategiyalaridan biri sifatida "Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida" qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji ham mavjudligi ta'kidlab o'tildi[1]. Bu yo'nalishda Sh.Mirziyoev tomonidan "2022-2030 yillarda gumanitarlashtirish strategiyasi" yaratilishi va amalga oshirilishi tavsiya etildi. Yangi O'zbekistonning 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishida "O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirish" vazifasi belgilangan. Bu tarix ta'limida ham integratsion sifatni ta'minlash, bo'lajak pedagog-kadrlar kasbiy kompetentligini yanada rivojlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. Ta'lim tizimidagi innovatsion va tajriba faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri ilmiy-uslubiy va ijtimoiy-pedagogik umumiylikni yaratish orqali umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'qituvchi va o'quvchilarini rivojlantirish uchun yangi yo'nalish va yangi mexanizmlarni ishlab chiqish deb hisoblash mumkin.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida tarix fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha, xususan, bo'lajak tarix o'qituvchilarining o'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash va metodik tayyorgarlik ishlari O.Davlatov, A.Ismoilov, Q.Shonazarov, R.Yarmatov va boshqa olimlar ishlarida keltirib o'tilgan. Respublikamiz kasb-hunar maktablarida tarix o'qitish metodikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar va uslubiy qo'llanmalar T.Toshpo'latov, N.Remeev, Ya.G'afforov ishlarida keltirilib o'tilgan[8]. Shu bilan birga bir qator yetakchi olimlarimiz, A.Asqarov, R.Muqminova, H.Bobobekov, A.Muhammadjonov va boshqalar tomonidan kasb-hunar ta'limda tarix fanlarini o'qitish va bu jarayonlarni takomillashtirish bilan bog'liq bir qator ishlar alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda o'quvchilar uchun tarix fanlari bo'yicha yuqori sifatli ta'lim tizimini yaratishga yordam berish maqsadida kasb-hunar maktablari oliy ta'limning axborot resurslaridan foydalangan holda ixtisoslashgan fanlarni chuqur o'rganishiga imkoniyat yaratish, tarix fanlari bo'yicha qo'shimcha uslubiy va didaktik ta'minot taqdim qilish lozim


xamda kasb-hunar maktab va OTM o'rtasidagi innovatsion hamkorlik tamoyillarini yanada rivojlantirish maqsadida oliy ta'limda tarix fanlari bo'yicha olimpiadalar tashkil qilish, iqtidorli talabalardan iborat guruh tashkil qilish va ularni kasb-hunar maktab o'quvchilari tarixiy bilimlarini yanada rivojlantirishga jalb qilish ua ular o'rtasida tez-tez viktorina o'yinlarini tashkil etish natijasida dars samaradorligiga erishish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Zamonaviy davrda o'quvchilarni dars jarayonlariga qiziqtirish uchun o'qituvchida xar yilda yangiliklar bo'lishi lozim. O'quvchilardan esa yangi savollarni eshitishimiz mumkin. Natijada dars jarayonlari yanada qiziydi va o'qituvchi dars sadiga erisha oladi.




Axborot asrida jamiyat o'zgarmoqda, o'rganilayotgan fanlarga bo'lgan munosabat o'zgarmoqda. Buning natijasida tarix eng ko'p o'zgarishi mumkin. Mavzu-axborot muhiti, axborot makoni beqiyos darajada kengayib bormoqda. Darsliklarning mazmuni darsliklardan tashqariga chiqadi: televideniya, radio, kompyuter tarmoqlari so'nggi paytlarda axborot oqimi va xilma-xilligini sezilarli darajada oshirdi. Biroq, bu manbalarning barchasi passiv ravishda idrok etish uchun material beradi. Jamiyatda, matbuotda, televideniya, darsliklarda bir xil voqealarga turlicha qarashlar paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan savol tug'ildi: bola bu miqdordagi ma'lumotni eslab, o'zlashtira oladimi? Bugungi kunda ko'pchilik dars jarayonlarida o'rganish samaradorligini oshirish yo'llarini izlamoqda va xarakter qilgan yaxshi natijalarga erishilmoqda. Dars mashg'ulotlariga guruhdagi o'quvchilarni qiziqtirish, o'quv jarayoniga barcha o'quvchilar ishtirok etishi, guruhda hech kimni befarq qoldirmasligi uchun qanday qilib ta'minlash masalasi o'qituvchini har doim o'ylantirardi. Tarix fani yordamida hozirgi kunda o'quvchi shaxsini, uning ijodiy tafakkurini, o'tmish va bugunni tahlil qilish, o'z xulosalarini chiqarish va har bir narsaga o'z nuqtai nazariga ega bo'lish qobiliyatini qanday rivojlantirish kerak? Buning uchun o'qituvchi zamonaviy davrga mos bo'lishi kerak bo'ladi. Buning uchun hozirgi kunda ko'plab interaktiv darslar, internet texnologiyalardan foydalanish dars jarayonlarini qiziq bo'lishiga olib keladi. Biz sizlarga misollar keltiramiz.

Dars mashg'ulotlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda faqat Ms Power point dasturida taqdimot qilishdan tashqari online platformalardan foydalanishni tavsiya qilinadi. Faqat sinf xonada internet bo'lsa bas. Hozirda taqdimotlar yaratishda canva.com, figma.com zamonaviy o'qituvchi foydalanib kelmoqda. Dars mashg'ulotlarini yoritishda learningapps.org platformalaridan foydalanish o'quv jarayonlarida samaradorlikka erishishga yordam beradi.


Misol uchun. <https://learningapps.org/> plarformasi.



Bu platforma orqali o‘qituvchi dars mashg‘uloti uchun tayyor o‘yinlardan foydalanish mumkin, qo‘shimcha ravishda o‘zi xam yaratish mumkin. Hozirga kunda bu platformadan foydalanilayotgan o‘qituvchilar o‘quvchilarni dars mashg‘ulotlariga yaxshi qiziqтира оlyaptilar va amaliy ko‘nikmalarni mustaqil o‘quvchilar o‘zlari bajarmoqdalar.




Bundan tashqari siz o‘ziz mustaqil o‘quvchilar mavzularni mustahkamlash uchun o‘yinlar yaratish imkoniyatlari mavjud.
Korsvord tuzish mumkin.




Mavzu bo'yicha tayanch so'zlardan o'yinlar yaratish mumkin.



Harflardan so'z oyini yaratish



O'quvchilarni baholash metodlarini yaratish mumkin



Demak, hozir kunning o'qituvchisi xar tomonlama yetuk, kerak bo'lsa psixolog, dars jarayonlariga kreativ yondashish tajribasi, albatta biz yuqoridagi keltirilgan zamonaviy metodlarni foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lsa, kelajakda yoshlarimiz albatta bilimli, jamiyatga foydasi tegadigan shaxsllar bo'lib yetishadi degan umiddamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston", 2021. -B. 233.
2. G'afforov Ya.X. Tarix o'qitish metodikasi/ . Darslik. Toshkent:-B.285.
3. G.K. Selevko. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. 4. <https://cyberleninka.ru/article/n/tarix-fanlarini-o-qitish-samaradorligini-oshirishga-qaratilgan-hamkorlik-mexanizmlarining-ilmiy-amaliy-ahamiyati>
5. Hamidullo o'g'li, T. H. (2024). RAQAMLI AXBOROTLARNI QAYTA ISHLASHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA CLOUD-ANDROID, ICLLOUD-APPLE IMKONIYATLARI VA FARQLARI. Scientific Impulse, 2(20), 189-193.
6. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
7. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). Ta'lim tizimida ko'zi ojiz o'quvchilarni informatika va axborot texnologiyalari fanida o'qitish texnologiyalar. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
8. Gorovik, A. A., & Tursunov, H. H. U. (2020). Scratch misolida bolalarni dasturlashni o'rgatish uchun vizual dasturlarni ishlab chiqish vositalaridan foydalanish. Universum: texnik fanlar, (8-1 (77)), 27-29.
9. Raimkulova, C. A., Aronbayev, S. D., & Aronbayev, D. M. (2020). Ekshalatsiyalangan havoda ammiakni ko'rsatishning vizual-rangli usuli va uni amalga oshirish uchun moslama. Universum: kimyo va biologiya, (7 (73)), 40-42.
10. Raimkulova, C. A., Narbayev, K. M., Aronbayev, D. M., & Aronbayev, S. D. (2022). AMMONIY IONLARINI SPEKTROFOTOMETRIK ANIQLASH UCHUN INDOFENOL KOMPLEKSINING HOSIL BO'LISH SHAROITLARINI OPTIMALLASHTIRISH. Norwegian Journal of Development of the International Science, (77-1), 3-9.
11. Raimkulova, C. A., Aronbayev, S. D., & Aronbayev, D. M. (2022). POTANSIYOMETRIK OQIM-IN'EKTSIYA SENSORI YORDAMIDA ARALASH TUPURIKNING PH QIYMATINI O'LCHASH. Universum: kimyo va biologiya, (6-2 (96)), 5-12.
12. Raimkulova, C. A., & Xolmurodova, D. K. (2022). BA'ZI KLINIK AHAMIYATGA EGA BIOMARKERLARNI INVAZIV BO'LMAGAN NAZORAT QILISH USULLARI VA QURILMALARINI ISHLAB CHIQISH. GEPATO-GASTROENTEROLOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, (SI-2).
13. Narbayev, K., & Raimkulova, Ch.A. (2022, February). INDOFENOL USULI BILAN AMMONIY IONLARINI SPEKTROFOTOMETRIK ANIQLASH SHARTLARINI

TANLASH. In The 7 th International scientific and practical conference “Science, innovations and education: problems and prospects”(February 9-11, 2022) CPN Publishing Group, Tokyo, Japan. 2022. 842 p. (p. 161).

14. Aronbayev, S. D., Aronbayev, D. M., Ismoilov, E. X., Islomov, L. B., Raimkulova, Ch.A., & Juraeva, S. B. (2020). Screen-printed elektrodleri og‘ir metallarning inversion-voltammetrik ta‘rifida. *Universum: kimyo va biologiya*, (5 (71)), 22-34.

15. Aronbayev, D. M., Aronbayev, S. D., Raimkulova, Ch.A., Isakova, D. T., & Shertaeva, A. A. (2021). Suv "tirik" va " o‘lik". elektroaktiv suvning antioksidant va gevşeme xususiyatlari haqida yangi faktlar. *Universum: kimyo va biologiya*, (2 (80)), 26-31.

16. Raimkulova, C. A., Aronbayev, S. D., & Aronbayev, D. M. (2020). Ekshalatsiyalangan havoni tahlil qilish invaziv bo‘lmagan diagnostika usuli sifatida. *International scientific journal «Global science and innovations*, 56-58.

17. Kuvatovna, K. D., & Rakhmanovich, K. A. (2022). STUDY OF THE QUALITATIVE CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPED COAL BRIQUETT FROM LOCAL RAW MATERIALS AND PRODUCTION WASTE. *ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 2(12), 46-50.

18. Раимкулова, Ч. А., Аронбаев, С. Д., & Аронбаев, Д. М. (2022). Биомаркеры и оценка рисков. *Universum: химия и биология*, (1 (91)), 77-83.

19. Odilzhanovich, T. K., Makhmudovna, N. M., & Odilzhanovich, I. A. (2021). The selection of the control parameter of the raw cotton electric sorter. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 1-5.

20. Odilzhanovich, T. K., Odilzhanovich, I. A., & Makhmudovna, N. M. (2021). Analysis of FLUFF in the Process of Lintering of Seeds. *Central Asian journal of theoretical & applied sciences*, 2(11), 26-28.

21. Ma, W., Yan, B., & Sun, L. (2022). Generative adversarial network-based short sequence machine translation from chinese to english. *Scientific Programming*, 2022.

22. NABIYEV, K. K., YAKUBOV, N. J., & NIYAZALIYEVA, M. M. (2019). Tikuvchilik buyumlarini tikishda ipning ishonchliligini oshirish usullari. *Ilm-fan va ta‘lim byulleteni*, (20-3 (74)), 14-16.

23. Niyazaliyeva, M. M., Dadajonov, Sh.D., Oxunbabayev, O. A., & Oxunbabayev, U. O. (2022). JONLI PILLADAN XOM IPAK ISHLAB CHIQRISH, QAYTA OZIQLANTIRISH USULI BO‘YICHA JONLI COCOONS GROWN-DAN XOM IPAK ISHLAB CHIQRISH. Professor ve Zotikov tavalludining 135 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konfessiya yakunlari bo‘yicha ilmiy ishlar to‘plami:(2022 yil 25 may). 2-qism.M.: RGU nomli Kosygina, 2022 yil.171 s., 91.

24. Makhmudovna, N. M., & Dadajonovich, D. S. (2023). An Innovative Method of Storing Live Cocoons and its Impact on the Quality and Technological Indicators of Live Cocoons. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 20, 12-17.

25. Makhmudovna, N. M., Muhammadkarim, M., & Oxunjonovich, A. U. (2021). IMPROVEMENT OF THE RECYCLINGPROCESS OF COCOONS RECEIVED FROM THE REPEAT FEEDING. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(12).

26. Kamolovich, B. E., & Hamidullo o'g'li, T. H. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI DAVRIDA SOHA MUTAXASSISLIK FANI BO'YICHA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH. Scientific Impulse, 2(18), 125-131.